

“ROHATI DIL” DOSTONIDAGI OBRAZLAR TIZIMI

Eshkuziyeva Hilola G‘ulom qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: luckyperson0123@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XVIII asrda yashab, ijod etgan Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostonida keltirilgan obrazlarning doston mazmun-mohiyatini ochib berishdagi roli to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: hadis, “Rohati dil”, valiyar, Iso Masih, qabr.

THE SYSTEM OF IMAGES IN THE EPIC “ROHATI DIL”

Abstract: The article is about the role of images who describe essence of the epic “Rohati dil” which written by Khojanazar Huvaiddo in XVIII century.

Key words: hadith, “Rohati dil”, holies, Iso Masih, grave.

Xo‘janazar Huvaydo asarlarini ma‘nolar mavj urgan ummonga o‘xshatish mumkin. Garchand shoir ijodi asrlar mobaynida she‘riyat shaydolari, olim-u fuzalolar tomonidan o‘rganilayotgan bo‘lsa ham, bizni hayratga soluvchi mo‘jizakor sir-sinoatlar, kashf etilmagan qirralari hadsiz, hisobsiz. Tafakkur va idrokka “g‘avg‘o” soluvchi, dunyo charxi kabi tinmay shoshayotgan, nafs va iymon sarhadida sarosar qablarni bir oz to‘xtab, mushohada etishga chorlovchi, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarga limmo-lim, uch asrdan buyon dunyoni hayratga g‘arq etgan “Rohati dil” dostonida Huvaydo Qur‘on oyatlari, Hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar orqali tasvirlashga harakat qildi. Ko‘p asrlik o‘zbek mumtoz adabiyotining asosiy mavzularidan biri e‘tiqod va ma‘rifat ekani ayon. Mumtoz shoir-u adiblarimiz asarlarida bu mavzuning badiiy talqini, odatda, ikki

shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, sof badiiy asarda e’tiqod va ma’rifat personajlar xarakteriga, obrazlar mohiyatiga singdirib yuboriladi. Ikkinchidan, ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi asarlarda, odatda, shar’iy ilmlar asoslari ta’sirli badiiy uslub orqali ifodalanadi. Huvaydoning “Rohati dil” asari birinchi turga mansub bo‘lib, ma’rifat va e’tiqod personajlar xarakteriga, obrazlar mohiyatiga singdirib yuborilgan. Asarning qoliplovchi sujet va hikoya qiluvchi sujet qismidagi obrazlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Asarning obraz va timsollar tizimini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: 1. An’anaviy obrazlar. 2. Ilohiy obrazlar. 3. Valiylar, shayx-u avliyolar obrazlari. 4. Yuqori tabaqa vakillari-podshoh obrazlari. 5. Ziyoli, ma’rifatli kishilar obrazlari. 6. Jamiyatdagi turli tabaqa kishilari obrazlari. Inson zotini aziz va mukarram qilib yaratgan Olloh nomini doimo dilda saqlash zarurligini dostonning hamd qismida keltirib o‘tadi. Sharq dostonchiligida o‘rta asrlarda barcha asarlar Xudoning madhi bilan boshlangan. Huvaydo ham o‘z dostonini shu an’anaga amal qilgan holda Olloh hamdi bilan boshlaydi. Unda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o‘simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o‘z yuksak aqli, har bir insonga mehri bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog‘lab, qovushtirib turishini katta zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Ollohning shunday mehribonchiligi uchun olamdagi hamma narsa har bir zarra unga minnatdorchilik bildirib, shukr etib, unga hamd-u sano o‘qiydi.

Sanov-u hamd xalloqi jahong‘a,
 Ki hukm ko‘rsatib yaxshi yamong‘a.
 Tutibdur besutun ko‘kni muallaq,
 Borib shams-u qamar dunyoga ravnaq⁸¹.

Aytish kerakki, Allohni anglash va unga mehr qo‘yish, Allohga xos yuksak sifatlarni ulug‘lash diniy-tasavvufiy adabiyotga xos an’anaga aylangan. Ollohning, shubhasiz, birligi va tanholigini bayon etishda Huvaydo salafilariga ergashdi.

⁸¹ Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. – Б. 7.

Huvaydoning Ollahning mislsiz qudratidan hayratlanadi. Ana shu ilohiy qudratni Yer bilan Osmonni ustunsiz, past-u balandsiz muallaq tutib turganligida, Osmonda Oy bilan quyoshni yaratib, dunyoni charog‘on etganligida ko‘rdi. Ollahning qiziq san‘atlari bor, deydi Huvaydo. U hamma narsaga qodir. Bu qisqa aql uning qudratidan qay birini bayon etishga ojiz. Zero, jahonga ko‘p qor, yomg‘ir yog‘dirib, uni issiq-sovuq qiladigan ham, ba‘zi yerlarni bog‘-u bo‘stonga, ba‘zi yerlarni cho‘lu daryolarga aylantiradigan ham Ollohdir.

U ba‘zilarni och-u muhtoj qildi, ba‘zilariga ko‘p mol-u davlat ato etdi. Ba‘zilarni xor-u zor qildi, ba‘zilarning uyini nonga to‘ldirdi. Birovni xushfe‘l va xushro‘y, ba‘zilarni esa jinni-yu rasvo qildi. Ba‘zilarni basirat (qalb ko‘zi) sohibi, ba‘zilarni esa soqov va ko‘r qildi. Agar bu inoyatlar Ollohdan bo‘lmasa, qisqa aql va qisqa til nima ham deya olishi mumkin. Ollohga shukrki u bizni soqov qilib yaratmadi: so‘zlash uchun til berdi. U barcha ishga sohib. Otani qirq yoshda, o‘g‘ilni bir yuz yigirma yoshda qildi. Xudoning qudratidan yuz o‘girma, uning qo‘lidan har qanday ish keladi. Bu ishlar u uchun mashaqqatli emas, aksincha oson. Birovni yer yuzida bosh ayladi, birovning boshiga mehnat va dard berdi. Olloh uchun hamma ish oson.

Birovni yer ustida qildi bosh,
Edi hukmi ravona bir diram tosh.
Agar amr aylasa zarra erur tog‘
Qilur har zarrani tog‘din ulug‘roq.

Huvaydo Ollahning qudratini bayon etar ekan Qur‘onda keltirilgan bir qancha voqealarga ham ishora qilib o‘tadi. Badiiy adabiyotda ishora mo‘jaz va ixcham so‘zlarga keng ko‘lamli ma‘nolarni singdirish va bu ma‘nolarni tafakkur qilish hamda anglash uchun ularga nozik belgi berish vazifasini bajargan. Jumladan odamning bir siqim tuproqdan yaratilganligi haqidagi quyidagi baytda Odamning yaratilishi haqidagi qissaga ishora mavjud.

Berib jon mushti hokig‘a qilib jism,
 O‘shal dam aytdi donoyi har ism.
 Quyidagi misralarda esa Nuh to‘foni voqealari haqida so‘z boradi:
 Duosidin biriga berdi to‘fon
 Qirildi yer yuzinda qolmadi jon.

Huvaydoning pok nazari majoziy go‘zalliklarda ayni haqiqatni ko‘radi, dunyo go‘zalliklariga basirat ko‘zi bilan qaraydi. U guldan tikon chiqarishni, zahardan asal olishni Parvardigorning qudrati deb biladi.

“Rohati dil” dostonida zo‘rma-zo‘raki kiritilgan biror obraz, timsol, so‘z yoki ibora yo‘q. An‘anaviy obrazlar sifatida payg‘ambarlar timsollarini olishimiz mumkin. Asarda Odam alayhissalom, Sulaymon, Iso Masih, Xizr, Muso, Nuh, Ibrohim alayhissalom kabi payg‘ambarlar nomi zikr qilingan. Adabiyot, ayniqsa, irfoniy adabiyot maqsad-mohiyati, obrazlar olamini ilohiyot va tarixga oid bilimlarsiz teran hamda xolis tahlil-u talqin etish aslo mumkin emas. Tasavvuf manbalarida ham shariat amrlarini ado etmasdan tariqat amaliyotiga o‘tish, ma‘rifat mushohadasisiz esa haqiqat sirlariga yetish imkonsizligi ta‘kidlangan. Go‘yo “qalam yozishiga arziqli”, deya tan olgan kitoblaridagidek, uning asarlarida ham suvrat va ma‘no, zohir va botin, vujud va ruh, shariat va tariqat har doim mushtarak. Huvaydo dostonida eng ko‘p murojaat qilgan obraz bu Muhammad (s.a.v) payg‘ambarimizdir. Muhammad payg‘ambar siymosi dostonida yangi dinning asoschisi, mo‘jizakor yoki o‘zining go‘zal axloqi bilan hammaga namuna bo‘la oladigan sifatidagina emas, balki komillik timsoli bo‘lgan Hazrati Inson qiyofasida gavdalanadi. Xo‘janazar Huvaydo Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning ummati qilib yaratilgani uchun Ollohga shukrona aytadi. Chunki Rasululloh onadan ham mehribon, qiyomatda ummatlariga shafolat qiluvchi, mo‘minlar qalbining ko‘zgusi, ishq ahlining oftobidir. U sharofat bobida yagona va oxirzamon payg‘ambaridir. Gunohlardan himoya qiluvchi va jazo kuni yo‘ldan adashganlarga yo‘lboshlovchidir. Yer ustida uning oti Muhammad bo‘ldi, Arsh tog‘ida esa unga Ahmad ismi bitildi. Bir guruh

so‘fiylar jumladan vahdad ul-vujud ta‘limotining izdoshlari aqidasi ko‘ra Ollohning ilk yaratgan narsasi “Nuri Muhammadiy” yohud “haqiqati muhammadiyahdir”. Ular o‘z aqidalariga asos sifatida ko‘pincha “Tangri taoloning ilk yaratgan narsasi mening nurimdur” hadisini keltiradilar. Huvaydo ham Ollohning yer yuzida ilk yaratgan narsasi Rasulullohning nuri ekanligini, Olloh Rasululloh nurini yaratganda na behisht, na do‘zax, na Arsh bor edi. Jin ham, farishtalar ham, Odam nasli ham yaratilmagan, yer-u osmon ham yo‘q bo‘lgan vaqtda Olloh Rasululloh nurini yaratdi.

Na bihishtu do‘zaxu na Arshi a‘zam,
Na jinni, na malak, na nasli odam.
Hanuz yo‘q erdi yer-u osmon ham,
Rasululloh nurini qildi paydo⁸².

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”idagi birinchi na’tda ham Rasululloh nuri bayoni keltirilgan. “Ul hazratning nuri qadamiyatidakim, zot bahrining avvalg‘i junbushida ul durri bebaqo la‘masi, xalo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi’asi lama’ ko‘rguzdi va durjdin, durjg‘a intiqol etti, to Safiyullohdin Abdullohg‘a yeti”.

Huvaydo Muhammad s.a.v. ni komil inson, ummatlari uchun qayg‘uruvchi payg‘ambar, adolatli xalifa, ilm ahlini hurmat qiluvchi buyuk siymo sifatida tasvirlaydi. Dostondagi turli mavzular asnosida payg‘ambarimiz bilan bog‘liq bir qancha rivoyat hamda hadislarni keltiradi. Dostondagi juda ko‘p hikoyat va rivoyatlar aynan Rasululloh s.a.v. ning hayoti va faoliyatiga bevosita bog‘liq.

“Rohati dil” dostonida ko‘p murojaat qilingan obrazlardan yana biri bu Iso a.s. obrazidir. U dostonida faqat vujudiga ilohiy ruh puflanganligi sababli otasiz tug‘ilgan mo‘jizakor payg‘ambar, sifatida emas, balki tiriltirish, uyg‘otish timsoli, Quyoshga fanolik ramzi, boshqa payg‘ambarlar bilan muvoziy qo‘llanuvchi siymo, badiiy tasviriy vosita ifodasichi, abadiylik ramzi, hasta ko‘ngillarni davolovchi tabib va boshqa ko‘plab g‘oyaviy badiiy vazifalarni bajarishga xizmat qilgan. Dostonda Iso a.s.

⁸² Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. – Б. 8.

bilan bog‘liq jami uchta hikoyat keltirilgan bo‘lib, ularning barchasida Iso a.s. o‘liklarni tiriltirishi tasvirlanadi. “Hikoyati chog‘ir ichmakning zararlari bayonida” bobida Iso a.s. qabristonni ziyorat qilib yurar ekan bir qabrdab chiqayotgan dudni ko‘rib qoladi. Qabr egasining ikki qo‘li olov bo‘lib yonmoqda va u azob chekmoqda edi. Iso a.s. Ollohga iltijo qilib o‘likni tiriltirishini va u bilan so‘zlashmoqni so‘raydi. Olloh duosini ijobat etib o‘likni tiriltiradi. Iso a.s. o‘likdan qabri nima uchun tutunga to‘lganligini va ikki qo‘li nima uchun olovda yonyotganligining sababini so‘raydi. Shunda qabr egasi tamaki tortadigan qo‘shnisiga taom bergani uchun qo‘li olovda ekanligini aytib faryod etadi. Huvaydo dostonida Iso a.s. o‘liklarni tiriltirish voqealari asosida insonlarni ogohlikka da‘vat etadi. O‘liklar tirilgach qabr azobi qiyomat azobidan voqif etadilar. “Hikoyati Iso alayhissalom“ bobida ham Iso a.s. qabristonga borganda va bir qabrdan oh-faryodlar eshitiladi. Ertasi kuni yana qabristonga borganda o‘sha qabrdan bu safar nur taralayotganligining guvohi bo‘ladi. Bu voqealarni Iso qavmiga bayon etadi hamda Ollohga iltijo etib bu hodisaning siri nimadaligini bilish uchun o‘likni tiriltirishini iltijo etadi. Qabr egasi tirilib bu voqeaning bayoni u bu dunyodan fosiq va johil bo‘lganligini juda ko‘p gunoh ishlar qilganligi sababli qabr azobini tortayotganligini aytadi. Bugun esa qabridan nur taralayotganining sababi esa yeti yoshli o‘g‘li maktabga chiqib muallimi oldida “bismilloh” degach Yaratgan bu azoblardan uni forig‘ etganligini bayon etadi. “Hikoyati hazrati Iso a.s.” nomli yana bir bobda ham Iso a.s. o‘liklarni tiriltiruvchi hamda u dunyo azoblaridan insonlarni ogoh etuvchi obraz sifatida gavdalanadi. Bu safar u bir kishini qabr ichida tanasining yarmi nur ichida, yarmi esa olov ichida yotganligini ko‘radi. Yaratganga duo qilib o‘likga jon ato etishini so‘raydi. O‘lik tilga kirgach bu hodisaning tavsilotini bayon etadi. Qabr egasining oldiga bir olim kelganda uni ko‘rib yarim jismini ko‘targanligi hamda yarim jismining gunohi to‘kilib yarim jismining gunohi jismida to‘kilmasdan qolib ketganligini bayon etadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Huvaydoning “Rohati dil” dostoni kitobxonning diniy-tasavvufiy bilimlari oshishiga yordam beradigan va maroq bilan o‘qiladigan ibratli asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. 119 б.
2. Ўзбек адабиёти. 4 томлик, 3-том. – Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. 3-том. 803 б.
3. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1967. 883 б.

